

DEVIANT XULQ-ATVOR MASALASINING ILMIY MANBALARDAGI PSIXOLOGIK TALQINI

*Turayeva Gulchehra Urayimovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Olib borilgan nazariy-ilmiy tahlillar mavzu doirasidagi muammolarni, xususan, o'smirlarda deviant xulq namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik determinantlari, o'smirlik davrida shaxtlararo munosabatlar, shaxsiy va ijtimoiy nizolar, o'smirlarda shaxsiy hayotiy faoliyatdan qoniqmaslik haqidagi tasavvurlarni nazariy tadqiq qilinishiga bag'ishlangan ishlarning bugungi kunda taqchilligi va shu bilan birga dolzarbligini ko'rsatdi. Dunyodagi ko'plab ilg'or psixologiya namoyandalarining deviant xulqga oid qarashlari tadqiq qilinganda bu jarayon shaxs ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun o'rganilishi muhim bo'lgan tadqiqot yo'nalishi ekanligi qayta-qayta ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: shaxs, o'smir, deviant xulq, me'yor, omil, biologik yondashuv, sotsiologik yondashuv, psixologik yondashuv, determinatsiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМЫ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ В НАУЧНЫХ ИСТОЧНИКАХ

*Тураева Гульчехра Ураимовна,
Исследователь Ташкентского государственного педагогического
университета им. Низами*

Аннотация: Проведённый теоретико-научный анализ показал недостаточность и в то же время актуальность на сегодняшний день работ, посвящённых теоретическому исследованию проблем предметного круга, в частности социально-психологических детерминант проявления девиантного поведения у подростков, межличностных отношений в подростковом возрасте, личностных и социальных конфликтов, представлений о неудовлетворённости личностной жизнедеятельностью у подростков. Когда исследуются взгляды многих ведущих представителей психологии мира на девиантное поведение, снова и снова подчёркивается, что этот процесс является областью исследований, которую важно изучать для социализации и развития личности.

Ключевые слова: личность, подросток, девиантное поведение, норма, фактор, биологический подход, социологический подход, психологический подход, детерминация.

PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF THE PROBLEM OF DEVIANT BEHAVIOR IN SCIENTIFIC SOURCES

*Turaeva Gulchehra Urayimovna,
Researcher at Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

Abstract: The conducted theoretical and scientific analysis has shown the insufficiency and at the same time the relevance to date of works devoted to the theoretical study of the problems of the subject range, in particular the socio-psychological determinants of the manifestation of deviant behavior in adolescents, interpersonal relationships in adolescence, personal and social conflicts, ideas about dissatisfaction with personal life in adolescents. When the views of many leading representatives of the psychology of the world on deviant behavior are examined, it is emphasized repeatedly that this

process is an area of research that is important to study for socialization and personal development.

Keywords: personality, teenager, deviant behavior, norm, factor, biological approach, sociological approach, psychological approach, determination.

Dolzarbligi: Jahonda shaxs og'ishganlik tizimi isloh qilishning zamonaviy sharoitida jamiyatning umumiy qabul qilingan, o'rnatilgan xulq-atvor normalariga mos kelmaydigan voyaga etmaganlar orasida namoyon bo'luvchi xulqi og'ishganlik va uning profilaktikasi muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shaxsni tarbiyalash, shakllantirishning muhim maqsadlaridan biri jamiyatda belgilangan normalarga amal qilish, shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish, ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, xulqidagi og'ishishlarni bartaraf etish usullarini takomillashtirish bo'lib, bunda asosiy omillar, ijtimoiy-psixologik me'yor, axloqiylik sifatleri, o'smir shaxsining kishilarga, oilasiga, jamiyatda bo'ladigan shaxslararo munosabatlar tizimi masalalari alohida tadqiq qilinmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (World Health Organization) 2022-yil yakunlari bo'yicha taqdim etgan bayonotida ta'kidlanishicha, "Dunyo bo'yicha har yili 11-16 yoshdagi agressiv o'smirlar orasida 200 mingga yaqin qotillik va talonchilik jinoyati sodir etiladi va ushbu xulq sabablarini aniqlash butun dunyo mutaxassislari tomonidan dolzarb muammo sifatida o'rganilmoqda". Ayni paytda, Butunjahon sog'liqni saqlash assambleyasi tomonidan «...psixik salomatliksiz salomatlik mavjud bo'lmaydi» tamoyiliga asoslangan harakatlar strategiyasida shaxsdagi agressiya holatlarini tadqiq etish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. YUNESKO tomonidan 2015-yil 19-22-may Inchxon deklaratsiyasi qabul qilinib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "barcha o'smirlarni ruhiy jihatdan barqaror rivojlanishni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni, jumladan barqaror rivojlanish va turmush tarzi, inson huquqlari, tinchlik va zo'ravonsizlik ijtimoiy hayotni targ'ib qilishni ta'lim orqali egallashni ta'minlash" masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda o'smirlarda ijtimoiy hayot ko'nikmalari, shaxslararo munosabatlar tizimi, salbiy psixologik holatlarda aql bilan ish ko'radigan, yetuk, ma'naviy hayot sohasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, ularning shaxsiy, kasbiy iqtidorini ro'yobga chiqarish, motivatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratishning zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda, hamda «...jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ishida ...yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish...» kabi vazifalari belgilanganligi o'smirlarning ijtimoiy hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning o'quv faoliyatidagi yo'nalishlarini belgilashga doir ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lmoqda. Mustaqillik yillarida respublikada huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi. O'smirlarda deviant xulq ko'rinishlarini bartaraf etish, shaxsiy hayotiy pozitsiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim-tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga imkoniyatlar yaratildi.

Metodologiya: Mamlakatimiz psixolog olimlaridan B.S.Abdullayeva, R.O.Begmatov, M.G.Davletshin, F.F.Ganjiyev, Z.S.Elov, P.S.Ergashev, Z.R.Ibodullayev, D.T.Ismatova, N.G.Kamilova, N.Sh.Mullaboyeva, Z.T.Nishonova, F.F.Rasulova, N.A.Sog'inov, G.Q.To'laganova, B.M. Umarov, B.R.Qodirov, U.D.Qodirov, E.G'.G'oziyev va boshqalar o'smirlilik xususiyatlari, ijtimoiy adaptatsiya jarayonlari hamda o'smirlarning ota-onalari bilan bo'lgan munosabatlari, deviant xulq-atvor, agressiv holatlar, ijtimoiy

dezadaptatsiya, assertiv xulq, o'smirlarda suitsidal xulq motivatsiyasi, agressiv o'smirlarning jamiyatga moslashishi muammosi o'rganilgan. Shunday bo'lsada, aynan o'smirlarda deviant xulq namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik determinantlari ilmiy muammo sifatida o'rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.F.Anisimov, A.G.Ambrumova, B.N.Almazov, L.Berkovich, L.I.Bojovich, O.S.Vasileva, T.N.Duxina, Z.A.Zimeleva, O.I.Zotova, I.A.Kedrova, A.E.Lichko, E.V.Olshanskaya, N.Yu.Jilina, I.V.Saveleva, M.Y.Xudayeva L.M.Simanyuk, A.M.Sisoyeva, T.V.Serebryakova V.A.Tolochek kabi tadqiqotchilar tomonidan deviant xulq namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik jihatlari, oilaviy nizolarga sabab bo'luvchi munosabatlar, agressiv xulq nazariyalari, o'smirlarning ma'naviy kamolotiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar kabi muammolarning muhim jihatlari o'rganilib, o'z ilmiy maktablarini shakllantirishga erishilgan. Shuningdek, mazkur tadqiqotlar deviant xulq-atvorni yuridik psixologiya va deviantologiya negizida o'rganishga qaratilgan.

Xorij olimlaridan A.Adler, S.D.Asir, A.Bandura, G.A.Ball, R.Berron, A.X.Buss, K.Byutner, Z.Freyd, E.Fromm, J.P.Gilford, F.Galton, Z.Konnor, K.Levin, Ch.Lomborozo, D.Mayers, R.Merton, R.Plutchik, A.A.Rean, M.R.Rebellow, J.Renzulli, C.Spearman, R.Sternberg, D.Zillmannlar tomonidan deviant xulq, delikvent xulq, autoagressiya, bilvosita agressiya, deviatsiya, addiktiv xulq hamda jinoiy xulq-atvor masalalari kabilarga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Adabiyotlar tahlili: Mazkur tadqiqot doirasida dastavval deviant xulq-atvor masalasining pedagogik-psixologik manbalardagi talqini ko'rib chiqiladi.

Bugungi kunda jamiyat hayotida inson xulq-atvori uning psixologik xususiyatlari bilan bog'liq masala zamonaviy psixologiya ilmining dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Bu sohada izlanish olib borgan ko'plab olimlar insonning tug'ilganidan boshlab shakllanishi bilan bog'liq barcha hodisalarni o'rganishni tadqiq qilish orqali uning murakkab jihatlari kashf etgan. Inson axloqi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida bixevioristlar uni psixologik fanning predmeti deb e'lon qilgan vaqtdan boshlab, ayniqsa, shiddatli rivojlanish tusini oldi. Haqiqatdan ham, inson xulq-atvorining jamiyatda belgilangan hayotiy normal mezonlardan og'ishi, buzilishi bilan bog'liq muammoni ko'plab ijtimoiy fanlarning predmeti bo'lgani kabi psixologiya ham o'rganadi.

Tadqiqotlarda "deviant xulq-atvor" (lotincha deviatio – og'ish) atamasi bilan bir qatorda "delikvent xulq", "addiktiv xulq", "dezadaptatsiya", "tajovuzkor xatti-harakatlar" "antisotsial xulq", kabi tushunchalarni sinonim sifatida ishlatishadi. Qadimdan farzandni tarbiyalash masalasi oila mikromuhitida amalga oshirilib shaxsning axloqiy, ma'naviy, siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy sohalarida rivojlantirish, komil shaxs sifatida shakllantirish jamiyatning oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan bo'lib kelgan. O'smir yosh davrlarining eng xarakterli davrlardan biri bo'lib, inson shaxsining ontogenetik rivojlanish davrlari nisbatan keskinroq va murakkabroq o'tish va o'z navbatida boshqa yosh davrlardan o'zining xilma-xil fe'l-atvor xususiyatlarini namoyon qilishi bilan ajralib turadi. Buning asosiy sababi shundaki, o'smirlilik birmuncha qiyin, konfliktlarga boy va murakkab davr bo'lib, oilada, shaxslararo munosabatlar tizimida, jamoadagi munosabatlarda bir-birini tushunmaslik, o'jarlik, qaysarlik, o'smir shaxsi organizmida kuzatiladigan gormonal, fiziologik o'zgarishlar psixologik muammolarga sabab bo'ladi va jamiyatda belgilangan normalarga amal qilmaslik tamoyiliga asoslanganligi bilan boshqa yosh davrlaridan farq qiladi.

Shaxsning deviant axloqi haqidagi zamonaviy bilimlar biz o'zaro bog'liq omillar tizimida determinatsiyalangan shaxs ijtimoiy xulq-atvorining o'ta murakkab shakli bilan ish olib borayotganimizni tasdiqlashga imkon beradi. Afsuski, shaxs og'ishgan xulqining yagona nazariyasi hali yaratilganicha yo'q. Ayni damda ushbu masala bo'yicha kenggina

ma'lumot turli ilmiy fanlarda jamlangan: tibbiyot, biologiya, psixologiya, sotsiologiya, huquq. Bundan tashqari, bilimning ba'zi tarmoqlarida ijtimoiy deviatziyani o'rganuvchi maxsus bo'limlar ajratiladi.

Tadqiqotimizning ushbu qismi deviantlikning tashqi ijtimoiy omillariga diqqatni uning ichki, konstitutsional-biologik sharoitlari haqidagi ilmiy tasavvur orqali jamlovchi sotsiologik nazariyalardan tortib, og'ishgan xulqning individual-shaxsiy mexanizmlarini ochib beruvchi psixologik konsepsiyalargacha tashqi sharoitdan ko'rinishning ichki sabablariga o'tish tamoyillari, turli xil ijtimoiy-psixologik nazariyalarning tahlillari bilan tuzilgan.

Muammoning qandaydir bitta aspektiga, ayniqsa, e'tiborni qaratgan alohida ilmiy-nazariy yondashuvlar bir-birini to'ldirib turadi. Masalan, klinik yondashuv deviantlikning psixopatologik tabiatini o'rganadigan bo'lsa, sotsiologik nazariyalar uning ijtimoiy determinantlarini ko'rib chiqadi, psixologik kontsepsiyalar ushbu ko'rinishning ichki shaxsiy mexanizmlariga asosiy urg'u beradi. Tahlil qilinayotgan turli nazariyalar sharhi, bizning nazarimizda, u haqidagi zamonaviy bilimlar olamida o'rganilayotgan ko'rinishning nisbatan yaxlit tasvirini olish imkonini beradi.

Og'ishgan xulq determinatsiyasi haqidagi masala alohida diqqat qaratish lozim bo'lgan muammo hisoblanadi. Determinatsiya tushunchasi ostida og'ishgan xulqni chaqiruvchi, qo'zqatuvchi yoki qo'llovchi omillar yig'indisi tushuniladi. Determinatsiyalovchi omillar shaxs shu tizimostining biri hisoblanadigan ijtimoiy tashkilotlarning turlicha darajalarida amal qiladi. "Jamiyat-shaxs" tizimi bir vaqtning o'zida bir necha darajada ishlaydi: geofizik, makrojamoatchilik, ijtimoiy-guruhli, mikroijtimoiy, individual-shaxsiy, psixofiziologik.

Ajratilgan darajalarga muvofiq shaxs og'ishgan xulqini determinatsiyalovchi quyidagi omillar guruhini aniqlash mumkin:

tashqi ijtimoiy sharoitlar;

ichki nasliy-biologik va konstitutsional tizim;

og'ishgan xulqning ichki shaxsiy sabablari va mexanizmlari hisoblanadi.

Deviant xulq-atvorning tabiati va sabablarining biologik talqini uzoq tarixga ega, ammo ushbu yo'nalishdagi klassik ilmiy tadqiqot ishlari faqat 19-asrda paydo bo'lgan. Avvalo, bu italiyalik psixiatr Ch.Lombrozoning asarlari bo'lib, unda u shaxsning anatomik tuzilishi va jinoiy xatti-harakatlar o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab bergan. Ch.Lombrozo "tug'ma jinoyatchi" tushunchasini fanga kiritdi, uni bir qator jismoniy, anatomik va antropologik belgilarga ko'ra bo'ladi. Jumladan, oldinga surilgan ulkan pastki jag, tekislangan burun, siyrak soqol, biriktirilgan quloqchalar, past peshona va boshqalar [11]. 20-asrda deviant xulq-atvorni biologik omillar bilan izohlashga urinishlar ham amalga oshirildi. Xususan, U.Sheldon insonning jismoniy tuzilishi turlari va xulq-atvor shakllari o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab berdi. V.Pirs 60-yillarning o'rtalarida genetik tadqiqotlar natijasida erkaklarda qo'shimcha Y xromosomasining mavjudligi jinoiy zo'ravonlikka moyillikni belgilaydi degan xulosaga keldi.

G.Y.Ayzenk (1970) mahbuslarni o'rganar ekan, introvertlarga qaraganda ekstrovertlarning jinoyat sodir etishga moyilligini isbotlaydi va bu, o'z navbatida, genetik darajada aniqlanadi.

Z.Freyd og'ishlarning sabablarini "aqliy nuqsonlar", "degeneratsiya", "demans", "psixopatiya" deb hisoblaydi ya'ni, xulq-atvor, xuddi shu psixologik va psixopatologik omillar bilan dasturlashtirilgan [4]. Z.Freyd, psixooanaliz nuqtai nazaridan, xatti-harakatlar og'ishlarining asosiy manbai bo'lgan va bostirilgan shaklda «Id» tuzilmasini tashkil etuvchi ongsiz drayvlar va bolaning tabiiy faoliyatidagi ijtimoiy cheklovlar o'rtasidagi doimiy ziddiyat deb hisoblaydi. "Shaxsning normal rivojlanishi ichki tizimda

“Men” va “Super-ego” tuzilmasini hosil qiladi, deb yozadi u, - ongli va ongsiz sohalarni muvozanatlashtiradigan optimal himoya mexanizmlarining mavjudligini nazarda tutadi. Aks holda, xususan, nevrotik himoya deb ataladigan holatda, shaxsning shakllanishi g'ayritabiiy xususiyatga ega bo'ladi [4].

Shaxs avval o'ylaydigan, so'ngra harakat qiladigan (aqldan ozganlik va beparvolik, beixtiyor xatti-harakatlardan tashqari) oqilona mavjudot bo'lgani uchun og'ishning asl sababi iroda erkinligi harakati sifatida shaxsning o'zi qaror qabul qilishidir. Bu javob “jinoiyatchi shaxsning jinoiy-huquqiy modeli” tarafdorlari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanadi (V.N. Kudryavtsev, K. Bartol, V.M. Pozdnyakov) [6].

Og'ishlarning sababi tashqi ijtimoiy muhitning bilvosita (individual tajriba orqali) ta'siridir. Bu javob jinoiy yoki deviant harakatning sabablarini sotsiologik tushuntirishning barcha tarafdorlari uchun afzalroqdir. Ushbu tadqiqot sohasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: “ijtimoiy ta'lim nazariyasi”, “Satterlendning differentsiatsiyalangan assotsiatsiyalar nazariyasi”, “ko'p faktorli nazariya”, “ijtimoiy aloqalar nazariyasi”, “sotsial nazorat nazariyasi” va boshqalar.

Sotsiologik yondashuv doirasida interaksionistik yo'nalish namoyondalaridan F. Tannenbaum [14], I. Xoffman, E. Lemert, G. Bekker [9] qo'llab-quvvatlaydilar. Bu nazariyaning asosiy mohiyati shundan iboratki, deviatsiya har qanday ijtimoiy xulq-atvoriga xos xususiyat emas, balki ma'lum bir xatti-harakatni deviant sifatida ijtimoiy baholash (stigmatsiya, “brendlash”) natijasidir. Deviant xulq-atvor sabablarini tahlil qilish, deviant xulq-atvor holatini va deviant maqomini belgilovchi yoki ularning shaxslarga nisbatlanishiga ta'sir qiluvchi jarayonlar, hodisalar va omillarni o'rganish, ya'ni odamlarga deviant sifatida munosabat qanday shakllanishini o'rganish asosida deviant xulq-atvorning paydo bo'lishi haqidagi ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni bayon qilgan.

Sotsiologik yondashuv doirasida deviant (agressiv) xulq-atvorni ijtimoiy hodisa sifatida qaraydigan I. Ranshburg va P. Popperlarning “ijtimoiy ta'lim nazariyasi” alohida qiziqish uyg'otadi. Ushbu nazariyaga muvofiq ular o'z tadqiqotlarida, deviatsiya - bu tegishli harakat va ijtimoiy mustahkamlash usulini kuzatish orqali sotsializatsiya jarayonida o'rganilgan xatti-harakatlar deb hisoblashadi [13]. Ijtimoiy ta'lim nazariyasi, birinchi navbatda, insonning namunaga yo'naltirilgan xatti-harakatlarini o'rganishdir. Ushbu yo'nalishning yetakchi nazariyotchisi A. Bandura tajovuzning namoyon bo'lish sabablari va shakllari bo'yicha ko'plab eksperimental ma'lumotlarni tahlil qiladi:

deviant xulq-atvorning ajralmas qismi, deviatsiyani chuqur tushunishga faqat quyidagilarga jiddiy e'tibor qaratish orqali erishish mumkin, degan xulosaga keldi:

- a) deviant xulq-atvor modelini o'rganish usuli;
- b) uning namoyon bo'lishini qo'zg'atuvchi omillar bo'yicha;
- c) ushbu xatti-harakatlar modelini mustahkamlashga yordam beradigan shartlar bo'yicha [5].

Sotsiologik yondashuv doirasidagi tizimli tahlil deviant xulq-atvorning sabablarini uchta tushuntirishni taklif qiladi:

-birinchisi madaniy bo'lib, unga ko'ra og'ishning sababi submadaniyat me'yorlari va dominant madaniyat o'rtasidagi ziddiyatlar bo'lib, odamlar bir vaqtning o'zida turli etnik, madaniy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa guruhlariga mansub bo'lganligidan kelib chiqadi (V.F. Pirojkov, Y.I. Tsimbal, A. Koen va boshqalar bu holatni chetlanishning obyektiv sababi deb hisoblaydilar ;

-ikkinchisi - konflikt nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan (R. Quinn, I. Teylor, P. Walton, D. Young). Bu holatda og'ish kapitalistik jamiyat normalariga qarshilik natijasidir va kapitalizmning ijtimoiy-iqtisodiy tabiati bilan bog'liq;

-uchinchi izohni R.Merton [12] “ijtimoiy anomiya” nazariyasida taklif qiladi. Uning

fikricha, deviant xulq-atvor ma'lum bir madaniyat tomonidan e'lon qilingan maqsadlar va ularga erishishning institutsional vositalari o'rtasidagi nomuvofiqlik sifatida anomiyadan kelib chiqadi [12].

Neofreydizm vakillari K.Xorni, D.Boulbi, G.Sullivanlar og'ishlarning sabablarini hayotning birinchi yillarida ona bilan hissiy aloqaning, iliq muloqotning yo'qligida ko'rishadi. Bola hayotining birinchi yillarida xavfsizlik va ishonch hissi yo'qligining salbiy roli E.Erikson tomonidan og'ishlar etiologiyasida ham qayd etilgan.

Z.Freyd va K.Lorensning drayverlar kontsepsiyasidan farqli o'laroq, "umidsizlik nazariyasi" paydo bo'ldi. Unda individning deviant xulq-atvori umidsizlikka nisbatan xulq-atvor reaksiyasi sifatida taqdim etiladi. Bu yo'nalishning asoschisi J.Dollard (1932) tajovuzkorlik, zulmkor zo'riqish, tashvish, umidsizlik va g'azab tuyg'ularida namoyon bo'ladigan, umidsizlikka bo'lgan reaksiya, deb hisoblaydi. Uning fikricha, umidsizlikdan kelib chiqmaydigan tajovuz yo'q.

Inson xulq-atvor motivi va motivatsiyasi tuzilishini, rivojlanish qonuniyatlari hamda ularning asosiy funksional mexanizmlarini hamda shakllanish jarayoniga yo'naltirish muammosini psixologik jihatdan tushuntirish uchun individning psixik rivojlanishi tahliliga o'ziga xos ravishda taktik yondashish maqsadga muvofiqdir.

N.V.Basayevaning fikricha, jamiyat normalari – bu ijtimoiy fanlarda tizimlarning saqlanishi va o'zgarishi uchun ruxsat etilgan o'lehov sifatida tushuniladi. Demak, har bir inson jamiyat qoidalariga amal qilib yashashi kerak, aks holda uning xatti-harakatlari qonun-qoidalarga zid bo'lib hisoblanadi [7].

Tadqiqotchi Y.V.Zmanovskayaning «deviantologiya» asarida berilishicha, «deviant – lotin tilida «deviatio» – «rad etish, inkor qilish» ma'nosini anglatadi. Ya'ni, deviant tushunchasi xulqi og'ganlik, jamiyat hayotidagi me'yorlarni tan olmaslik, unga bo'ysunmaslik ma'nosida qo'llaniladi» [10].

Xulosa: Tom ma'noda «deviant xulq» tushunchasi insonlar xatti-harakatlarining jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy tartib-qoidalardan chetga chiqishi degan ma'noni bildiradi va ushbu tartib-qoidalarga rioya qilmaslik va ularni buzish bilan xarakterlanadi. Deviant xulq-atvor ayniqsa, o'smir yoshlar uchun ko'proq xosdir. Mazkur davrda o'smir yoshlarning shaxsiy hislatlari shakllanadi, uning o'zini-o'zi anglashi, dunyoni bilishi qaror topadi. Biroq shaxsning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, u ba'zan o'ziga xos qiyinchiliklar va og'ishlar, ichki qarama-qarshiliklar hamda ijtimoiy hayotdagi turli vaziyatlarga ko'nika olmasliklar bilan ham kechishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, zamonaviy ijtimoiy fanlarda me'yor va rollarga mos kelmaydigan xatti-harakatlar «deviant» deb ataladi. «Norma» tushunchasi esa, har qanday xulq og'ishlarini o'rganish uchun boshlang'ich mezondir.

L. Berkovich umidsizlik nazariyasini o'zgartirib, umidsizlik g'azabni keltirib chiqaradi va tajovuzkor munosabatda bo'lishga hissiy tayyor degan pozitsiyani ilgari surdi [8]. L.Berkovich "frustratsiya - tajovuz" kontseptual sxemasiga uchta muhim tuzatish kiritdi:

- umidsizlik tajovuzkor harakatlarda amalga oshishi shart emas, lekin u ularga tayyorlikni rag'batlantiradi;

- tayyor holatda bo'lsa ham, tegishli sharoitsiz tajovuz sodir bo'lmaydi;

- tajovuzkor harakatlar yordamida xafagarchilik tug'diradigan vaziyatlardan chiqish shaxsga bunday harakatlar odatini singdiradi.

Kognitiv komponentni hisobga olgan holda, bu nazariya quyidagicha ko'rinadi: umidsizlik va qo'zg'atuvchi stimullar salbiy ta'sirni shakllantirish orqali tajovuzkor reaksiyalarni qo'zg'atadi. Shunday qilib, umidsizlik tajovuzkor xatti-harakatga sabab bo'ladi, kishi tomonidan noxush hodisa sifatida boshdan kechiriladi.

Hodisalarni baholashning tajovuzkor xulq-atvor bilan shug'ullanish qaroriga ta'siri bo'yicha eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki:

tajovuz (yoki qo'rquv kabi boshqa kuchli his-tuyg'ular) ko'pincha odam tomonidan shaxsan o'zi uchun muhim deb baholangan hollarda yoki vaziyatlarda paydo bo'ladi.

Yuqoridagi sharhdan ko'rinib turibdiki, hozirgi vaqtda deviant xatti-harakatlarning sabablari bo'yicha ko'plab nazariyalar, tushunchalar va nuqtai nazarlar mavjud. Biroq, tashqi jozibadorligiga qaramay ularning hech biri alohida-alohida savolga aniq va ishonchli javob bermaydi va tegishli faktik dalillar bilan qo'llab-quvvatlanmaydi. Ammo tegishli zamonaviy nazariyalarning hech birini butunlay noto'g'ri deb e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Aksincha, ularning har birida kamchilik bilan birga qandaydir haqiqat ham borligi ko'rinib turibdi. Tadqiqotimiz davomida yanada kengroq tahlil qilib, keyingi maqolalarda bu haqda batafsil bayon etamiz.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4306-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi PF-60-sonli Farmoni.

Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

Фрейд З. Мы и смерть // Рязанцев С. Танатология (учение о смерти). СПб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 1994. – С. 5-42.; Freud S. Mourning and melancholia // Hogarth Press, London – 1957.

Бандура А. Уолтерс Р. Подростковая агрессия. - М., 1999. – 28 с

Бартол, Курт. Психология криминального поведения / Курт Бартол. - 7. междунар. изд. - СПб. : Прайм-Еврознак ; М. : ОЛМА-ПРЕСС, 2004 (ПФ Красный пролетарий). - 352 с. : ил., табл.; 26 см. - (Психологическая энциклопедия.); ISBN 5-93878-105-1 (в пер.)

Басаева Н.В. О борьбе с вредными привычками в школе // Предупреждение вредных привычек у школьников. М.: Изд-во, АПН. – 2002. – С. 37.

Берковиц, Л. Агрессия: причины, последствия и контроль : учебник / – Санкт-Петербург : Прайм-Еврознак; Москва : Нева : Олма-Пресс, 2002. – 512 с. – (Секреты психологии) (Best психология) . – ISBN 5-938780-14-4.

Беккер, Г. Аутсайдеры : исследования по социологии девиантности / Говард Беккер ; пер. с англ. Н. Г. Фархатдинова ; под ред. А. М. Корбута. — Москва : Элементарные формы, 2018. — 272 с.

Змановская Е.В. Девиантология (психология отклоняющегося поведения). 1-е изд., 2003; 2-е изд., 2004; 3-е изд., 2005. - М.: Издательский центр «Академия». – 288 с.

Ломброзо Ч. Гениальность и помешательство/ М:2019.- 384с.

Merton R.K. The Institutional Imperatives of Science // Sociology of Science /Ed. B. Barnes. L.: Penguin Books, 1972; P. 65–79; Merton R.K. The Sociology of Science. Chicago: Chicago University Press, 1973. P. 267–278.

Поппер, К. Р. Постскриптум к «Логике научного открытия» (Postscript to the Logic of Scientific Discovery), т. 1 — 3. (1982)

Tannenbaum, F. Crime and the Community / F. Tannenbaum. — N.Y. [u.a]: Ginn and Co., 1938. — 487 p.